



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,  
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2024 yil “4” aprel

**02-28/7147-son**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**  
**Sog‘liqni saqlash vazirligi,**  
**viloyatlar va Toshkent shahar**  
**sog‘liqni saqlash boshqarmalari,**  
**Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot**  
**Oliy ta‘lim muassasalari va**  
**ilmiy tashkilotlarga**

**Toshkent davlat stomatologiya instituti tomonidan rejalashtirilgan**  
**“Yosh olimlar kuni” Respublika ilmiy-amaliy anjumanini o‘tkazish**  
**tog‘risida**

**TOPSHIRIQ XATI**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. **2024 - yilning 25 - aprel kuni Toshkent davlat stomatologiya institutida**  
**“Yosh olimlar kuni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**  
o‘tkazilsin.

2. Konferensiya ishtirokchilari o‘rinlari taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent davlat stomatologiya instituti rektori (N.Xaydarov), Fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (U.Ismailov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U. Gaziyeva) konferensiyaga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishi ta‘minlasin.

4. Toshkent davlat stomatologiya instituti rektori N.Xaydarovga:

- sertifikatlarni tayyorlash va konferensiya ishtirokchilarini o‘rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta‘minlash amalga oshirilsin;

- konferensiyani o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sarf-xarajatlar homiyilar va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205 -son Qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalariga muvofiq o'tkazilishi va konferensiya o'tkazilganligi to'g'risida hisobotni 3 kun muddat ichida Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi ta'minlansin.

5. Tadbir bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot va PR xizmati rahbari F. Sanayevga yuklansin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, tibbiyot oliy o'quv yurtlari rektorlari, ilmiy-tashkilotlar direktorlariga ilovaga muvofiq konferensiyada qatnashish uchun o'z vakillarini qatnashishini ta'minlasin.

7. Ushbu topshiriq xati ijrosining nazoratini Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i O'.Ismailov zimmasiga yuklansin.

**Vazirning birinchi  
o'rinbosari v.b.**



**D.Sultanov**